

**ALEKSANDR MAKEDONSKIY HAYOTI, HARBIY YURISHLARI
VA O'LIMIDAN KEYINGI JARAYONLAR**

Kuranbayev Amirxon Sardor o'g'li

Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

232-tarix guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Makedonskiyning hayoti va harbiy yurishlari haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни и военных походах Александра Македонского.

Annotation: This article talks about the life and military campaigns of Alexander the Great.

Kalit so‘zlar: Aleksandr, Filipp II, Makedoniya, Yunoniston, Ellistik, Baqtriya, So‘g‘diyona, Kichik Osiyo, goplit, Salavk.

Ключевые слова: Александр, Филипп II, Македония, Греция, Эллинистическая, Бактрия, Согдiana, Малая Азия, гоплит, Селевк.

Key words: Alexander, Philip II, Macedonia, Greece, Hellenistic, Bactria, Sogdiana, Asia Minor, hoplite, Seleucus.

Kirish

Aleksandr Makedonskiy buyuk qirol, mohir sarkarda. Miloddan avvalgi 356-yilda qadimgi Makedoniyaning poytaxti afsonaviy va go‘zal Pella shahrida tavallud topgan. Uning otasi Makedoniya podshosi Filipp IIning o‘g‘li, onasi esa Ipr shohining qizi Olimpiada edi. Otasi ko‘p jangu-jadallarda bo‘lgani uchun, unga ko‘pincha onasi tarbiya bergen. Aleksandr 13 yoshidan boshlab buyuk yunon olimi Aristotel(Arastu)dan ta’lim-tarbiya ola boshlagan. Aristotel yosh Aleksandrga ko‘proq siyosat, etika va falsafadan tashqari, tibbiyat, adabiyot va she’riyatdan ham saboq bergen. Aleksandr yoshligidanoq izzat ta’lab, qaysarlik va maqsad sari intilish kabi hislatlarni ko‘rsatib kelgan. Boshqa tomondan esa u jismoniy lazzatlarga butkul befarq bo‘lgan, ortiqcha ovqatlarni yeyishdan o‘zini tiygan va ayollarga qiziqish bildirmagan¹.

Aleksandr hayotidagi eng muhim inson – bu uning otasi Filipp II Makedonskiydir. O‘z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, Filipp Aleksandrdan yaxshiroq shoh edi. Aleksandrdan farqli o‘laroq u o‘limiga qadar oddiy makedon jangchisiligicha qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani

¹Дубровский И. Александр – сын Зевса // Вокруг света. 2005. 140-152 с.

egallamagan, ammo shoh sifatida xalqining yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini bajargan. Antik davrdagi ayrim tarixchilar uni Aleksandrdan yaxshiroq deya hisoblashgan.

Makedoniya shohi Filipp II harbiy islohot o'tkazib makedon falangasini tuzdi. Og'ir qurollangan piyodalar(goplitlar) 16-29 qator sarflanadigan jangchilar 5 metrgacha uzunlikdagi sarissa(nayza) bilan qurollanib, orqa safdagilar sarissalarini oldingi qatordagilar yelkasiga qo'yari edi. Og'ir qurollangan jangchilar katta qaldonlar bilan himoyalanib sarissalarini tikandek chiqarib dahshatli kuchni tashkil qilar edilar. Makedon qo'shinining faxri zodagonlardan tuzilgan og'ir qurolli suvoriy – getarylar(podshoni o'rtoqlari) edi².

Adabiyotlar tahlili

Filipp II Eron bilan urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladi, ammo Sharqqa yurish g'oyasini amalga oshirish Filipp IIga nasib etmadi. Bu g'oyani uning o'g'li Aleksandr amalga oshirdi. Aleksandr taxt vorisi va oqsuyak oilaning farzandiga munosib bo'lgan ta'lim-tarbiyani oldi. O'sha davrda hali mashhur bo'limgan faylasuf Aristotel(Arastu) uning o'qituvchi va tarbiyachilaridan biri bo'ldi. Filipp II o'g'lini davlat boshqaruv ishlariga asta-sekin torta boshladi. Aleksandr mil.avv.340-yilda shimoliy Yunonisttonni tog'li hududlaridagi qabilalardan birining qo'zg'olonini bostirib birinchi bor o'zini kuchli sarkarda ekanligini ko'rsatdi. Mil.avv.336-yil yozida Filipp II qizining to'yida o'z qo'riqchisi tomonidan o'ldirildi³. Uning o'limi Osiyoga rejalashtirilgan hujumlar va barcha yutuqlarni xavf ostiga qo'ydi. Filipp o'ldirilganida Aleksandr 20 yoshda bo'lgan. Garchi Filippni bir nechta xotinlaridan merosxo'rlari bo'lsa ham, Aleksandrga Filippning butun hokimiyati merosxo'ri sifatida qaraganlar va uning kelajagi uchun qattiq qayg'urganlar. Aristotel bilan birga bir nechta yunon ustozlari yunon adabiyoti va madaniyatidan ta'lim bergen. Aleksandr ulardan bir umrlik Gomerga muhabbatni va afsonaviy ajdodlari Axilles va Geraklning qahramonliklariga tenglashish yoki o'tib ketish maqsadini oldi⁴.

Aleksandrda, shuningdek, Filipp yo'q paytida davlatni boshqarish bo'yicha amaliy tajriba bor edi va Frakiya qo'zg'olonini bostirgan edi. U hattoki mil.avv.338-yildagi Xeroneya jangida otliq qo'shinlarga qo'mondonlik qilgan edi. Aleksandrning shaxsiy mavqeyi imperianing dastlabki inqirozli yilida unchalik mustahkam emas edi. Bunga Filippning ba'zi amaldorlari Yunonisttonni qo'ldan berish xavfi tufayli Makedoniyaning shimoliy o'lkalarini mustaqil qilishga bo'lgan harakatlari sabab

²Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи (Шарқ, Юнонистон, Рим) // “Фан ва технология”, Тошкент, 2009, 286 б.

³Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи (Шарқ, Юнонистон, Рим) // “Фан ва технология”, Тошкент, 2009, 287 б.

⁴Ураков Д. Жаҳон тарихи // “Innovatsiya-Ziyo”, Тошкент, 2020, 199 б.

bo‘ldi. Yunoniston Aleksandrning e’tiborini tortdi. Filippning dafn marosimi tugashi bilanoq, Aleksandr Filippning o‘chini olish uchun o‘zini mustaqil deb e’lon qilgan Yunonistonning asosiy polislari Afina va Fivaga yurish qilishga qaror qildi⁵.

Yunonistondan qaytgan Aleksandr mil.avv.335-yil bahorida Philipp o‘limidan keyin Makedoniya asoratidan qutulishga harakat qilgan Tirakiya va Illiriyaga qarshi yurish qildi. Aleksandr harbiy harakatlarini Danube daryosining shimoligacha uzaytirdi. Philipp IIning mil.avv.339-yil Skutiyadagi g‘alabasidan keyin kamsitilgan Triballi Aleksandrdan xotinlari va bolalari bilan yashayotgan orolga omonlik so‘raydi. Qolgan Tirakiya qabilalari Geta va Danube orasida qolishga majbur bo‘lishdi.

Aleksandrning armiyasida to‘liq 37000 kishi bor edi, bundan Makedoniya falanga piyodalari 12000 nafar, qo‘srimcha 3000 kishilik “qirol gvardiyasi” va 1800 kishilik otliq askarlar bor edi. Bundan tashqari, Illiriya va Tihrasaning 9000 ga yaqin yunon piyoda va otliq askarlari ham mavjud edi. Yana qo‘sinda suvda harakatlana olishi uchun 200 ta yunon kemalari(triyera) ham bo‘lgan. Forslar bilan Aleksandr o‘rtasida dastlabki to‘qnashuv hozirgi Turkiya davlatida, Granik daryosi, Anatoliyaning shimoli-g‘arbida bo‘ldi. Jangda Aleksandr Troyadan Afinaga keltirilgan zirhda tushdi. “Axilles zirhi” deb nom olgan bu zirh forslarni sarosimaga soldi. Aleksandr askarlari Anatoliyaning janubi bo‘ylab g‘arbga harakat qila boshladi va fors satrapliklari Lidiya, Kariava, Lusiani egalladi. Endi Aleksandr Kichik Osiyoning ichiga qarab – Kappadokiyaga qarab harakat boshladi. Bu yerda yashovchi mahalliy qabila va elatlar Eron zulmidan aziyat chekar edilar. Shu tufayli ular Aleksandr va Makedoniya armiyasini xursandchilik bilan kutib oldilar.

Fors podshosi Doro III va Makedoniya podshosi Aleksandr o‘rtasida dastlabki yirik jang Kichik Osiyo yarimorolining janubi-sharqi va O‘rtayer dengizining shimoli-sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan Iss shahri yaqinida bo‘lib o‘tdi.

Muhokama.

Iss jangidan keyin forslar qarshiligini yetarli miqdorda yenggan Aleksandr Suriya va Finikiya tomon yo‘l oldi. Finikiya yurishidan so‘ng Aleksandr Misrga qarab yurish boshladi. Ammo Misrdagi Eron satrapi Aleksandrga qarshilik qilish o‘rniga unga xayrixohlik bildirdi. Kohinlar Aleksandrni fir‘avn deb e’lon qildilar. Mil.avv.332-yilda Aleksandr Nil daryosi quyilish joyidagi deltada Aleksandriya(Iskandariya) shahrini qurdirdi. Aleksandr Misrni egallaganini ko‘rgan Doro III u bilan kelishish yo‘llarini axtara boshladi. Doro unga o‘zining to‘ng‘ich qizini xotinlikka olishini va Frot daryosidan g‘arbdagi yerkarni olishini taklif qildi. Aleksandr bunga rad javobini berdi, ikki o‘rtadagi hal qiluvchi jang mil.avv.331-yil 1-oktyabr kuni shimoli-sharqiy Iroqdagi Gavgamel qishlog‘ida bo‘ldi. Gavgamel jangidagi g‘alabadan so‘ng Aleksandr Bobil, Suza, Persepolni egalladi. Aleksandr

⁵Ураков Д. Жаҳон тарихи // “Innovatsiya-Ziyo”, Тошкент, 2020, 200 б.

taslim bo‘lgan va uning tomoniga o‘tgan Bobil va Suza satraplarini mukofotlaydi, Persepol esa taslim bo‘lishni istamas edi. Chunki Persepol Fors imperiyasining markazi edi. Aleksandr shaharni yo‘q qilish bahonasi tariqasida, mil.avv.V asrda yunon-fors urushlarida vayron etilgan yunon shaharlari uchun o‘ch olish yo‘lini ko‘rsatdi. Mil.avv.330-yil aprelida Persepolni tark etishdan oldin makedoniyaliklar shahardagi saroylarga o‘t qo‘ydilar.

Mil.avv329-yilda Makedoniyalik Aleksandr Baqtriya va So‘g‘diyona yerlariga harbiy yurishlarini boshlagan. Bu yerda Aleksandrga qarshi Spitaman boshchiligidida qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Qo‘zg‘olonchilar Maroqandadagi yunon-makedon garnizonini qirib tashlab, shaharni egallaydilar. Aleksandr ularga qarshi Farnux boshchiligidida 3000 piyoda va 800 otliq qo‘shin jo‘natgan, Spitaman Politimet(Zarafshon) daryosining quyi oqimidagi yerlarga chekingan. Spitaman yana Maroqandani qamal qilgan. Aleksandr Spitamanga qarshi Andromax, Menedem, Karan boshchiligidida otliq va piyoda qo‘shin yuboradi. Mil.avv.328-yilning bahorida qo‘zg‘olonning 2-bosqichi boshlanadi. Shu yil kuzida 3000 otliq bilan So‘g‘diyona poytaxti tomonga yurgan. Jangda qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchraydilar. Mil.avv.328-yil oxirida Spitaman xoinona o‘ldirilgan. Spitaman o‘ldirilishiga qaramasdan qo‘zg‘oltonni 3-bosqichi boshlanadi. Aleksandr mahalliy aholi qarshiligin kuch bilan yenga olmasligiga ishongach, ularga yaqinlashishga harakat qilgan, ularga nisbatan siyosatini o‘zgartirgan. Tog‘li hududlardagi qo‘zg‘olon boshliqlari Oksiart, Sisimitr, Xoriyen kabilarni afv etib, molmulkini qaytarib bergen. Oksiartning qizi Raksana(Ravshanak)ga uylangan. Mahalliy zodagonlarning aksariyati Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o‘tib ketishgan. Mil.avv.327-yil oxirida So‘g‘diyona Aleksandr tomonidan batamom egallanib, qo‘zg‘olon bostirilgan⁶.

Tahlil va natijalar.

Aleksandr Makedonskiy mil.avv.323-yil 13-iyunda vafot etadi. Aleksandr o‘zining vorisini rasmiy jihatdan tayinlashga ulgurmadi, bu uning lashkarboshilari o‘rtasida Aleksandr merosi uchun uzoq kurashga olib keldi. Bu kurash bir necha o‘n yillarga cho‘zilib, juda ko‘p qon to‘kilishiga olib keldi. Diadoxlar o‘rtasidagi urushlar uzoq davom etib, Yunoniston, Misr, Kichik Osiyo va Mesopotamiya asosiy jang maydonlariga aylandi. Diadoxlar o‘rtasidagi kurashdan so‘ng Aleksandr davlati 3 qismga bo‘linib ketdi. Mil.avv.306-yilda Antigon, keyinroq Ptolomey, Lisimax, Salavk va Kassandr o‘zlarini podsho deb e’lon qildilar. Misrda Ptolomeylar, Gretsiya va Makedoniyada Antigonidlar, O‘rtayer dengizining sharqiy qismidan to shimoliy Hindistongacha bo‘lgan hududlar Salavk qo‘liga o‘tadi⁷.

⁶Сагдуллаев С. А. Ўзбекистон тарихи // “Фан”, Тошкент, 2018, 162-170 б.

⁷Хайдаров С.А. Ўзбекистон тарихини ўқитишида “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари // “Science and education”, 2020, 192-198.

Xulosa.

Aleksandr Makedonskiy – zamonaviy madaniyat kontekstida hozirga qadar murojaat qilib kelinadigan kam sonli antik davr shaxslaridan biridir. Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bo‘lgan. Ba’zida mahalliy odatlar va dinini tushunmagani bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G‘arb va Sharq o‘rtasida ko‘prik qurishga bo‘lgan urinishlaridan ko‘plab xulosalar chiqarishimiz mumkin.

Aleksandr qobiliyatli hukmdor edi. U yosh – 33 yoshga to‘lmay vafot etgan bo‘lsa-da, ko‘plab ishlarni amalga oshirishga ulgurgan. Aleksandr harbiy strategiya va taktikada daho bo‘lgan. Qayerga yurish qilmasin o‘zining askarlaridan ko‘proq qo‘singa duch kelgan, biroq doim g‘alaba qozongan. Aleksandr bir vaqtning o‘zida shoh bo‘lish bilan birga, mohir sarkarda, siyosatchi, davlat arbobi, diplomat va xalq yetakchisi sifatida gavdalangan.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Дубровский И. Александр – сын Зевса // Вокруг света. 2005. 216 с.
2. Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи (Шарқ, Юнонистон, Рим) // “Фан ва технология”, Тошкент, 2009, 440 б.
3. Ураков Д. Жаҳон тарихи // “Innovatsiya-Ziyo”, Тошкент, 2020, 290 б.
4. Сагдуллаев С. А. Ўзбекистон тарихи // “Фан”, Тошкент, 2018, 511 б.
5. Ҳайдаров С.А. Ўзбекистон тарихини ўқитишида “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари // “Science and education”, 2020